

## OLTINSOY TOPONIMLARINING STRUKTUR-SEMANTIK TAHLILI

Safarova Shahlo Shuhrat qizi,

Termiz Davlat Universiteti 2-bosqich magistranti

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Oltinsoy tumani hududidagi toponimlarning struktur va semantik xususiyatlari tahlil qilinadi. Toponimlarning yasaliş modelları, leksik qatlamlari va ularning tarixiy va madaniy tomondan qanday ahamiyatga ega ekanligi ilmiy asoslab, yoritib beriladi. Shuningdek, tahlil natijasida hudud toponimlarining asosiy qismi ot+ot, sifat+ot, va bir soʻzli toponimlardan tashkil topgani aniqlangan.

**Kalit soʻzlar:** Toponimika, Oltinsoy, struktur, semantika, geografik nomlar, lingvistik tahlil, antropotoponim, komponent, mikrotoponim.

**Аннотация.** В данной статье анализируются структурные и семантические особенности топонимов, расположенных на территории Олтинсайского района. Научно обосновываются модели образования топонимов, их лексические слои, а также их историко-культурное значение. В результате анализа установлено, что основную часть топонимов региона составляют модели типа существительное + существительное, прилагательное + существительное, а также однословные топонимы.

**Ключевые слова:** Топонимика, Олтинсай, структура, семантика, географические названия, лингвистический анализ, антропотопонимы, компонент, микротопонимы.

**Abstract.** This article analyzes the structural and semantic features of toponyms in the territory of Oltinsoy district. The formation models of toponyms, their lexical layers, as well as their historical and cultural significance are scientifically substantiated and explained. The analysis reveals that the majority of the region's toponyms consist of noun + noun, adjective + noun, and single-word structures.

**Keywords:** Toponymy, Oltinsoy, structure, semantics, geographical names, linguistic analysis, anthroponymic toponyms, component, microtoponyms.

**Kirish.** Toponimika tilshunoslikning muhim yoʻnalishlaridan biri boʻlib, u geografik nomlarning kelib chiqishi, qanday shakllanishi va semantik jihatdan rivojlanishini oʻrganuvchi fan sohasi hisoblanadi. Shuningdek, geografik nomlar jamiyat tarixining oʻziga xos "til xotirasi" hisoblanadi. Oʻzbek toponimikasini ilmiy jihatdan tahlil qilish XX asrning 60 - yillarida boshlangan.

**Adabiyotlar tahlili.** Oʻtgan asr davomida oʻzbek toponimikasini tahlil qilish boʻyicha anchagina ilmiy izlanishlar amalga oshirildi. Xususan, oʻzbek toponimikasini oʻrganishda T.Nafasov, E.Begmatov kabi tilshunos olimlar ilmiy ishlar olib borgan. Ularning ilmiy tadqiqotlarida toponimlarning struktur, semantik va morfologik xususiyatlari yoritilgan. Shuningdek oʻzbek toponimikasiga tegishli tadqiqotlar orasida 20 dan ortiq nomzodlik, 6 ta doktorlik desertatsiyalari himoya qilingan. Bundan tashqari Y.Xoʻjamberdiyev va S.Nayimov Surxondaryo va Buxoro toponimlarini oʻrganish boʻyicha samarali tadqiqotlarni amalga oshirdilar. Xoʻjamberdiyevning Boysun tumanidagi Sayrob nomli qishloqdan 200 ga yaqin mikrotoponim, Darband qishlogʻidan 150 ga yaqin mikrotoponim Sherobod tumanidagi Oqtosh qishlogʻidan 70 ga yaqin mikrotoponim yozib olgani haqidagi maʼlumotlar bor. Biroq Oltinsoy tumani toponimlari alohida tizim sifatida kompleks tahlil qilinmagan. Ushbu maqolaning yangiligi ham shu bilan bogʻliq holda belgilanadi. Umuman olganda Oltinsoy tumani toponimlarning

shakllanishi bir necha asosiy manbalar bilan bog‘liq hisoblanib, ularning har biri o‘sha hudud tarixiga oid ma‘lum malumotni o‘zida aks ettiradi. Bunda birinchidan, tabiiy-geografik omillar boshchilik qiladi ushbu tumanning tog‘oldi va vodiy hududida joylashgani sababli ko‘pchilik toponimlar suv,relif manbalari va o‘simlik dunyosi bilan bevosita bog‘langanini ko‘rish mumkin. Misol uchun, soy, jar, adir, buloq va tog‘ komponentlari ishtirok etgan nomlar tumanda keng tarqalgan.

**Metodlar tahlili.** Oltinsoy tumani toponimlari o‘zining har tomonlama boy tarixiy va lingvistik xususiyatlari bilan boshqa go‘sha toponimlaridan ajralib turadi. Ushbu hududdagi geografik nomlar xalqning uzoq yillik ijtimoiy hayoti, atrof-muhit bilan bog‘liq tasavvurlari, etnik jihatdan tarkibi va xo‘jalik faoliyatining muhim ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Shuningdek, toponimlar tilimizning faol va barqaror qatlamlari sifatida ancha yillar mobaynida saqlanib kelinadi va ular orqali biz qadimgi davrlar haqida aniq va muhim ma‘lumotlarga bo‘lamiz.

**Natija va muhokama.** Oltinsoy tumani hududidagi nomlar struktur jihatdan sodda va murakkab shakllarga ega va ularning ko‘pchiligi ikki komponentli birliklardan tashkil topgan. Bularga misol qilib Xo‘jasoat, Shakarqamish, Oqarbuloq, Choyxona, Bog‘saroy, Yong‘oqzor, Shirinbuloq, Yunusobod, Jo‘shqinsoy, Yangisoy, Xazinabog‘, Adirsoy, Navobaxsh, Xalqnazar, Guzarboshi, Nurchashma, Jonbaxshida, Gavharshodbegim, Bobotog‘ kabilarni misol keltirish mumkin. Tadqiqoimiz davomida biz Oltinsoy tumani hududida joylashgan qishloq, mahalla va ko‘cha nomlariga qo‘yilgan 800 dan oshiq mikro va makro toponimlarni semantik-struktur tahlilga tortdik. Tabiiy-geografik toponimlar bir necha guruhlarga bo‘linadi. Bular:

1. Obyektning rang-tus belgisi bilan bog‘liq toponimlar: Qiziltepa, Ko‘ktosh, Yorqinhayot, Pokdil, Sheryurak, Obodqishloq, Yangisaroy, Oqdaryo. Ko‘rkambog‘, Jo‘shqinsoy, Shirinbuloq, Kumushkamar, Qorasuv, Alvonsoy, So‘limdiyor, Gullibog‘, Qaynarbuloq, Yangiyer, Oltinbuloq Qoratepa, Qoraariq va boshqalar;

2. Obyektning joylashish o‘rniga ko‘ra nomlangan toponimlar, bunomlarni boshqa hududlarda ham uchratishimiz mumkin: Yakkasaroy, Yunusobod ( Toshkent shahrida tuman nomi), Oltinsoy (Buxoro viloyatidagi qishloq nomi),Qamashi (Qashqadryo viloyatidagi tuman nomi) Yangiobod ( Muzrabod va Denov tumanlarida qishloq nomi) va h.k;

3. Obyektning miqdori bilan bog‘liq toponimlar Peshtaxta, Birdamlik, Beshkent, Beshyog‘och, Mingchinor, To‘rto‘rik, Beshkapa, Beshovul;

4. Obyektning hajm va xususiyati bilan bog‘liq toponimlar: Katta Vaxshivor, Kichik Vaxshivor, Kichik G‘armali, Kata G‘armali, Kengdala.

5. Tashqi ko‘rinish va shakliga ko‘ra nomlangan toponimlar. Qiyshiqariq, Qiziljar. Qo‘shterak, Ko‘ktosh, Jilg‘intepa.

6. O‘simlik, daraxt va meva nomlari bilan bog‘liq toponimlar Gulsaroy, Guliston, Novda, Gulchechak, Qizg‘aldoq, Nokzor, Zardolizor, Qizilgul, Atirgul, Gulqishloq,

Shotutli, G'allakor, Limonzor, Lolazor, Chinor, Yakkatut, Shakarqamish, Zirabuloq, Uzumzor, Olmazor va h.k;

7. Hayvonlar, parrandalar va boshqa jonzodlarning nomi bilan toponimlar: Vaxshivor (ushbu hudud nomi har xil tahlil qilinadi: Tura Nafasov va Vazira Nafasovalarning ma'lumotiga ko'ra, qadimgi eroniy tilida vaxsh ( suv tangrisi ) var/var ( qal'a ) – suv xudosi sharafiga qurilgan qo'rg'on, Vaxshning qo'rg'oni. Ammo boshqa bir manbalarda kelishicha, Vaxshivor- vaxshiy + mor (Ilon vodiysi) ning o'gargan shakli ekanligi aytilgan. Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, "Vaxshivor" toponimi ham hayvonlar bilan bog'liq nomdir, Baliqchi, Ayiqsoy, Kaptarxona, Bo'rijar, Otchopar;

8. Hid, ta'm shirin so'zlari qatnashgan toponimlar: Anbarsoy, Shirinbuloq, Shirinsuv, Bog'ishirin, Sho'ralisoy, Sho'rbuloq va h.k. Oltinsoy tumani topoimlari struktur jihatdan sodda va murakkab tuzilishga ega bo'lib ular til birliklarining birikish uslublariga ko'ra har xil turlarga ajraladi. Ularni struktur jihatdan tahlil qilganda quyidagi guruhlarga bo'linadi:

**1. Sodda ( bir komponentli ) toponimlar.** Bu turdagi toponimlar bir so'zdan iborat bo'ladi va tub yoki yasama shaklida ham keladi. Misol qilib aytadigan bo'lsak Ziynat, Tarannum, Samo, Yakdillik, Jilokor, Salavot, Taron, Ijobat, Zarhal, Gulafshon, Ziyokor, Qutlug', Zardolizor, Darxon, Ofarin, Nokzor, Nishon, Gulyor, Jambul, Intilish, Novda, G'urur, Lo'kka, Tiklanish, Sharaf, Sanoat, Ilg'or, Diydor, Sadaf va boshqalar.

**2. Ikki komponentli toponimlar.** Oltinsoy hududida eng ko'p uchraydigan toponimlar asosan ushbu turga kiradi, shuningdek ular ikki mustaqil so'zni birikishidan hosil bo'ladi. Bunday toponimlarni bir qancha indikatorlarga ajratish mumkin:

a) Ot+ot modeli - Ikkita ot so'z turkumiga oid so'zlarning qo'shilishi orqali hosil bo'ladi. Misollar: Oftobmakon, Kumushkamar, Marjonbuloq, Oltinboshqoq, Olchabog', Buloqboshi, Bog'saroy, Guzarboshi, Bobotog', Choyxona, Anbarsoy, Choshtepa, Qumqishloq, Zirabuloq, Jannatdiyor, Ariqbo'yi, Sadarayhon, Nurchaman, Jannatmakon, Chinorbuloq, Chashmabuloq, Soybuloq, Bobodehqon, Zarbuloq, Suvbuloq, Gulbuloq, Oltinbog', Bibizaynab, Qumpaykal, Polvonota, Toshloqsoy va h.k. Ushbu toponimlarning birinchi komponentlarning aniqlovchi ikkinchisi asosiy obyektga ishora qiladi.

b) Sifat+ot modeli - Ushbu modelda asosiy komponent sifat ikkinchisi ot bo'ladi. Misollar: Yangiqurulish, Oqarbuloq, Bodihavo, Qiziltepa, Yakkatut, Qoratepa, Jilibuloq, Yangiariq, Bo'lakqishloq, Gulchechak, Qo'sharcha, Obodturmush, Oqkabutar, Baxtlitepa, To'g'riariq, Kengdala, Oydinyo'l, Alvonsoy, Qiyshiqariq, Lalmisoy, Suvlisoy, Oqqush, Eskitegirmon, Sarchashma, Buyuk yurt, Yangidavr, Yorqin kelajak, Milliy qadriyat, Yangiqo'g'on, Ahildiyor, Qo'shtarak, Boyqo'rg'on, Yakkabog', Yakkasaroy, Yangiyo'l, Porloqyurt, Boyguzar va boshqalar uchraydi. Ushbu tahlilda sifat joyning belgisini ya'ni rang, hajm va yoshini ifodalaydi.

c) Ot+sifat modeli - Oltinsoy tumani toponimlari ichida kam uchraydi, lekin mavjud. Misollar: Dashtobod, Dehqonobod, Yunusobod, Husunobod, Surxonobod, Shahriobod, Mirzaobod, Bekobod, Zafarobod va boshqalar.

**3. Ko'p komponentli (murakkab) toponimlar.** Buturdagi toponimlar uch yoki undan ortiq so'zdan tashkilotadi. Misollar: Yangiqurulish mahallasi, Mustaqillikning 10 yilligi, Beshbola paxlavon, Xo'ja Hasan Ilg'oriy, So'fi Olloyor qadamjosi, Xudaynazarbobo, Oqmozorbobo, Mustaqillikning 30 yilligi, Gavharshodbegim va boshqalar. Ushbu toponimlar ko'pincha rasmiy nomlash natijasida paydo bo'lgan va sintaktik jihatdan murakkab hisoblanadi.

Oltinsoy toponimlarining struktur o'ganilishini quyidagi jihatlarda muhim deb topdik:

- Hududning tarixiy lissoniy rivojlanishini ko'rsatadi;
- Qadimgi va yangi nomlash qatlamlarini aniqlashga yordam beradi;
- Tilning so'z yasash usullari haqida malumot beradi;
- Etnografik va geografik xususiyatlarini ochib berishda qo'l keladi

Oltinsoy tumanida metaforik mazmun beruvchi toponimlar ham ko'p uchraydi. Oqoltin, Oltindala, Qorasuv, Zarbuloq, Ko'ktosh, Shirinbuloq, Oqdaryo, Oqtulpor, Bo'tabo'zlar singari joynomlari obyektning joylashish o'rniga va shakliy tuzulishiga ko'ra nomlangan toponimlardir. Shuningdek, ushbu tumanda hudud nomlarining inson nomlari (xalq qahramonlari, mashhur va tarixiy shaxslar) ga nisbatan berilgan Xudaynazarbobo, Sulton Bobur, Mirzo Ulug'bek, O'tkir Hoshimov, Sharof Rashidov, Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur, Tog'ay Murod, Xo'jasoat kabi antroponimlarni uchratish mumkin.

**Xulosa** qilib aytganda, Oltinsoy tumani toponimlarining struktur-semantik tahlili ham ilmiy ham madaniy-ma'rifiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega undan tashqari, hudud nomlarining tahlil qilinishi ijtimoiy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, u halqning o'tmishini asrab qolish til boyligini namayon qilish va kelajakka meros qilib qodirishga xizmat qiladi. Oltinsoy tumani toponimlari tizimli va murakkab lingvistik birliklar majmuasidir ularning struktur tasnifi hududning tarixiy, madaniy va geografik jihatdan rivojlanishini tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha Oltinsoy toponimlarining ko'pchiligi qadimiy ildizga ega bo'lib ularning etimologiyasi chuqur tarixiy qatlamlarga borib tarqaladi. Bu esa tumanning uzoq tarixiy ahamiyatga egaligini bildiradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Qorayev S. Yer tining kaliti. Qisqacha lug'at. – Toshkent, 2009.83 b
2. T .Nafasov, V. Nafasova. O'zbek tili toponimlarining o'quv izohli lug'ati. Toshkent: "Yangi asr avlodi". - 2007.-68 b.
3. Qorayev S. Toponimika. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2006.
4. Begmatov E. Joynomlari – ma'naviyat ko'zgusi. – Toshkent: Ma'naviyat, 1998.

5. Nafasov T., Nafasova V. O'zbek tili toponimlarining o'quv izohli lug'ati. – Toshkent: yangi asr avlodi, 2007.
6. Mahalliy arxiv materiallari.
7. Internet ma'lumotlari.

